

MA'LUMOT

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy veb-saytida e'lon qilingan ingliz tili fani spesifikatsiyasida nazarda tutilgan fonetika bo'limi o'qituvchilarning ohang, urg'u, intonatsiya, ritm va imlo farqlari bo'yicha fonetik va orfografik bilimlarini baholaydi.

#	Knowledge areas	Requirements
1	Phonetic and Orthographic	Differentiating segmental features (individual sounds) in words, suprasegmental features (stress, rhythm, intonation) in extended speech and identifying word stress patterns in multisyllabic words to ensure accurate pronunciation.

Yuqorida berilgan jadvalda o'qituvchilarning “fonetik va orfografik bilimlar” bo'yicha aynan qaysi turdagi bilim-ko'nikmalari tekshirilishi nazarda tutilgan. Taqdim etilgan spesifikatsiyaning mazmun sohasida keltirilgan 6-tartib raqamida berilgan jadvalda esa “fonetik va orfografik” bo'limga tegishli aniq turdagi mazmun sohalarni ko'rish mumkin: ***Principles of English spelling, speech sounds: vowels and consonants; stress, syllables, and intonation, phonetic transcription, articulation of sounds., phonetic and phonological contrast, classification of speech sounds*** (Ingliz tili imlosi va nutq tovushlari prinsiplari: unli va undosh tovushlar; urg'u, bo'g'inlar va intonatsiya; fonetik transkripsiya, tovushlarni talaffuz qilish; fonetik va fonologik kontrastlar; nutq tovushlarini tasniflash).

1-savol: 30-31.10.2025 sanasida berilgan imtihon savollarining 1-savolida o'qituvchining talaffuzdagi tovush (segment) va ohang-urg'u (suprasegment) xususiyatlarini farqlay olishini hamda talaffuz, ritm va yozma bilimlar o'rtasidagi bog'liqlikni bilishini tekshiradi. Misol uchun “*ta-ble* so'zidagi kabi nutqning eng kichik ikki qismli bo'lagini to'g'ri ifodalagan atama qaysi?” ko'rinishidagi savol berilgan bo'lsa, va javoblarda

A. utterance (ifodalanadigan fikr)

B. stress time (urg'u)

C. syllable (bo'g'in)

D. homonym (omonim) kabi variantlar mavjud bo'lsa, unda har bir javobni tahlil qilib olamiz.

Demak, utterance so'zi bir nechta so'zlardan tashkil topib, umumiy ma'no (so'zlovchining fikrini)ni ifodalashga xizmat qiladi va so'ralgan javobga to'g'ri kelmaydi.

Stress time — urg'u asosida gapning urg'u tushgan qismlari balandroq va urg'u tushmagan qismlari esa qisqartirilib aytilishini bildiradi va savolda "nutqning eng kichik ikki qismli bo'lagi"ni aniqlash so'ralgani uchun ham bu javob to'g'ri kelmaydi.

Syllable – savolda misol tariqasida berilgan so'z *ta-ble* bo'g'in ko'rinishni anglatishi uchun uni ajratib yozilgani hamda "nutqning eng kichik ikki qismli bo'lagi"ni ifodalagani uchun bu javob to'g'ri.

Homonym – ya'ni omonimlar talaffuzi bir xil, lekin ma'nolari turlicha bo'lgan so'zlar bo'lgani uchun ham bu javob ham xato hisoblanadi. A2- B1

2-savol: O'qituvchilarning so'z urg'ulari va ularning so'z turini (ot yoki fe'l) ajratishdagi rolini tushunishini tekshiradi. Bu "Fonetik va orfografik bilimlar" bo'limidagi muhim mavzulardan biri bo'lib, misol tariqasida *increase* so'zini keltirish mumkin:

IN-crease – agar urg'u so'zning birinchi bo'g'iniga tushsa, ot so'z turkumiga mansub, in-CREASE ko'rinishida urg'u so'zning ikkinchi qismiga tushsa, fe'l so'z turkumiga mansubdir. Ikkinchi turdagi savollar so'z tariqasida emas, gap ichida yuqoridagi kabi ajratib berilgan:

- A. The in-CREASE was large, but they hope to IN-crease profits.
- B. The IN-crease was large, but they hope to in-CREASE profits.
- C. The IN-crease was large, but they hope to IN-crease profits.
- D. The in-CREASE was large, but they hope to in-CREASE profits.

Berilgan javoblarda yuqoridagi tahlilga asoslangan to'g'ri javob mavjud va B variantda berilgan. B1

3-savol: O‘qituvchilarning talaffuzdagi tovush (segment) va ohang-urg‘u (suprasegment) xususiyatlari haqidagi bilimlarini to‘liq baholaydi. Ularda unli va undosh tovushlarni tasniflash, schwa [ə], diftonglar, fonemalar, grafemalar va minimal juftliklar kiradi. Bu orqali o‘qituvchilar:

- Tovushlarni aniqlay olish va farqlay olishi;
- Ularning abstrakt ifodalarini tushunishi;
- So‘zlarni yozma bilimlari bilan bog‘lash qobiliyatini namoyon qiladilar.

Kognitiv jihatdan talaffuzdagi tovush (segment) va ohang-urg‘u (suprasegment) xususiyatlari asosan “Bilish” bosqichiga tegishli bo‘lib, ingliz tilining fonetik tuzilmalari bo‘yicha ta’riflash va tushunishga qaratilgan. Misol tariqasida “nutq organlarida hosil bo‘lgan tovush og‘iz bo‘shlig‘ida to‘siqqa uchrasa, bu tovush qanday nomlanadi?” ko‘rinishida savol berilsa, bu savolning javobi albatta *undosh tovushi* hisoblanadi va ingliz tilida undosh tovushi *consonant* deb nomlanadi. B1

4-savol: Bu savol turi xuddi 3-savol kabi davom etadi, undagi farq berilgan savolga mos ta’rifni topish talab etiladi. Masalan: What typically happens to vowels in unstressed syllables in English? (Ingliz tilida so‘zning urg‘u olmagan bo‘g‘inidagi unli tovush bilan nima sodir bo‘ladi?) Bu savolga javob esa — so‘zning shu qismi qisqarib o‘qiladi yoki tovush schwa [ə] shakliga o‘tadi.

Spesifikatsiyaning morfologiya bo‘limida quyidagicha talab keltirilgan:

#	Knowledge areas	Requirements
2	Morphology	Analyzing how word forms change to express grammatical meanings such as tense, number, gender, case, or degree and identifying types of morphemes (roots, prefixes, suffixes), inflectional and derivational affixes, and recognizing patterns of word formation that contribute to the vocabulary system of a language.

Taqdim etilgan spesifikatsiyaning 6-tartib raqamida berilgan jadvaldagi “Morfologiya” bo‘limiga tegishli aniq turdagi mazmun sohalarni: **basic components; free vs. bound morphemes; word formation; morphological processes; grammatical categories; morphological typology; morphological analysis** - asosiy bo‘laklar, mustaqil qo‘llaniladigan morfemalar, mustaqil qo‘llanilmaydigan, boshqa morfema bilan birga keladigan morfemalar, so‘z

yasash va yangi soʻzlar hosil qilish jarayoni, morfologik oʻzgarishlar va shakllanish jarayonlari, grammatik maʼno turlari (masalan: son, shaxs, zamon), tillarning morfologik tuzilish boʻyicha tasnifini koʻrish mumkin. B1

5-savol: Grammatik jihatdan toʻgʻri berilgan javobni topish talab qilingan:

- A. The invitation is printed on recycled paper.
- B. The invitation is printed on recycled papers.
- C. The invitation is printed on, recycled paper.
- D. The invitation is printed on, recycled papers.

Bu javob variantlarida “taklifnoma qayta ishlab chiqarilgan qogʻozga bosib chiqarildi” mazmunidagi gapni toʻgʻri berilgan qatorni topish talab qilingan. Toʻgʻri javob A variantda berilgan. B1

6-savol: “Majhul nisbatda toʻgʻri berilgan gapni toping” mazmunida koʻrsatma berilgan va xuddi 5-savol kabi bu savolda ham toʻgʻri yozilgan gapni topish talab qilingan. B2

7-savol: Bu savolda berilgan gapni tushib qolgan qismiga qoʻshma otlarni mos turi berilgan javob topish talab qilingan:

The keynote finished with _____ that raised the room.

- A. a ten minutes speech
- B. a ten minute speech
- C. a ten-minutes speech
- D. a ten-minute speech

Toʻgʻri javob D variantda mavjud. B1

8-savol: Bu turdagi savolda berilgan gap qisqarganda otni toʻgʻri ifodalab kelgan participle ishtirok etgan gapni toping, deyilgan:

Choose the sentence which best reduces the clause with a participle following the noun.

The sandbags that were provided were insufficient.

- A. The sandbags provided were insufficient.
- B. The provided sandbags were insufficient.
- C. The sandbags providing were insufficient.
- D. The sandbags were provided insufficient.

Bu savolda to'g'ri javob mavjud bo'lib, A variantda berilgan.

Spesifikatsiyaga ko'ra, 9-12-savollar sintaksis bo'yicha o'qituvchilarning bilimini baholaydi va quyidagi jadvalda mazmun sohalari berilgan.

#	Knowledge areas	Requirements
3	Syntax	Analyzing how sentence elements such as subjects, predicates, objects, complements, and modifiers function and relate to each other within different sentence structures (simple, compound, complex, compound-complex) and identifying grammatical patterns, understanding word order, the use of conjunctions, agreement between sentence parts (such as subject-verb agreement), and how syntactic structures affect meaning, clarity, and communicative purpose.

Taqdim etilgan spesifikatsiyaning 6-tartib raqamida berilgan jadvaldagi “Sintaksis” bo‘limga tegishli aniq turdagi mazmun sohalarni — **Basic elements; parts of speech in sentences; phrase structure; word order; sentence types; clauses: independent and dependent clauses; basic syntactic trees** — Gapning asosiy unsurlari (ega, kesim va boshqalar), gap tarkibidagi so‘z turkumlari, sintaktik birikma tuzilishi, so‘zlarning tartibi, gap turlari (masalan: darak, so‘roq, buyruq), mustaqil va ergash gaplar (yakka holda gap bo‘la olmaydi) qamrab oladi. B2

9-savol: Bu savolda ega va kesimning moslashuvi turidagi savol berilgan va talabgordan ega va kesimni to'g'ri moslashtirilgan javobini topish so'ralgan. B1 - B2

10-savol: bu savolda berilgan umumiy mazmundagi neytral gap qismini rasmiy gap qismiga to‘g‘ri o‘tkazilgan turini topish so‘ralgan. Masalan: “The time we will meet at” ko‘rinishidagi gap qismini rasmiy qismga o‘tkazish “The time at which we will meet” shaklida bo‘ladi. B1-B2

11-savol: bu savolda berilgan qo‘shma gapni sodda gapga to‘g‘ri o‘zgartirilgan javobni topish so‘ralgan. B1-B2

12-savol: Bu savolda inversion – berilgan gapni inversiyaga to‘g‘ri o‘tkazilgan javobni topish so‘ralgan.

Spesifikatsiyaning 13-16-savollari o‘qituvchilarning pragmatika fan sohasiga doir bilimlarini baholaydi va bu fan sohasida o‘qituvchidan berilgan gapning mazmunini anglash talab qilinadi.

#	Knowledge areas	Requirements
4	Pragmatics	Analyzing how speakers use language in social interactions, taking into account factors like tone, intention, shared knowledge, cultural norms, and the relationship between speakers and identifying how meaning can be shaped by implicature, politeness strategies, speech acts (e.g., requests, promises, apologies), and how listeners interpret indirect language, implied meanings, or figurative expressions depending on the situation.

Yuqorida berilgan jadvalning davomi sifatida aniqroq yoritilgan va 6-tartib raqamida berilgan jadvaldagi “Pragmatika” bo‘limda ***Speech Acts; Implicature; Presupposition; Deixis; Context and Meaning; Politeness and face theory; Conversational Structure; Pragmatic competence; Cross-cultural pragmatics; Discourse and pragmatics*** (gap orqali bajariladigan harakatlar (masalan: so‘rash, buyurish, va‘da berish), bevosita aytilmagan, ammo ma’noda tushunarli bo‘lgan ishora ma’no, nutqda oldindan mavjud deb qabul qilingan ma’lumot, deixis — “bu”, “u”, “shu yerda”, “o‘sha paytda” kabi vaziyatga bog‘liq ko‘rsatkichlar, ma’no kontekstga (vaziyatga) ko‘ra aniqlanadi, boshqaga hurmat, obro‘sini saqlash nazariyasi, suhbatning tartibi (navbat bilan gapirish, pauza, javob berish), nutqni vaziyatga mos tushunish va qo‘llay olish ko‘nikmasi, turli madaniyatlarda nutq odoblari va ma’no berish usullari) kabi mazmun sohalarni ko‘rish mumkin. B2

13-savol: bu savol berilgan to‘rtta gapni ma’no jihatdan eng muloyim (hurmat bilan) ma’no beruvchidan odatiy holatda foydalanuvchi ketma-ketlikda joylangan qatorni topish so‘ralgan. B1-B2

14-savol: javoblarda berilgan savolga eng to‘g‘ri javob ifodalangan gapni topish talab qilingan. B1-B2

15-savol: grammatik mavzu qo‘shilmagan va faqat pragmatik mazmunga ega bo‘lgan javobni topish nazarda tutilgan. B1-B2

16-savol: Bu savolda ikki kishining o‘rtasida bo‘lgan suhbat va birinchi odamning savoliga ikkinchi odamning javobidagi mazmunni to‘g‘ri ifodalagan qatorni topish so‘ralgan.

Sotsiolingvistika fan sohasi taqdim etilgan spesifikatsiyaning 17-20-savollarida aks etadi va unda til va madaniyatga doir bilim tekshiriladi. Bu turdagi savollar avval berilgan imtihon savollaridan o‘zgarmagan.

#	Knowledge areas	Requirements
5	Sociolinguistics	Analyzing the relationship between language and society, and how social factors such as age, gender, ethnicity, region, social class, and context influence the way language is used and interpreted, language variation (dialects, sociolects, idiolects), code-switching, and the impact of social identity, group membership, and cultural norms on speech patterns; Identifying how language reflects and reinforces social structures, exploring topics such as language and power, language attitudes, multilingualism, and the role of language in social interaction and communication across communities.

6-tartib raqamida berilgan jadvaldagi “Sotsiolingvistika” bo‘limda ***Language and Society; Dialects and language varieties; Multilingualism and code-switching; Language and identity; Language change; Language and gender; Language and power; Language attitudes; Language planning and policy; Sociolinguistic competence*** - tilning jamiyatdagi roli va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi, lahjalar, shevalar, ijtimoiy va hududiy til shakllari, bir nechta tilda gapirish va nutq davomida tilni almashtirish, tilning shaxsning kimligi va ijtimoiy guruhiga bog‘liqligi, vaqt o‘tishi bilan tilning o‘zgarishi, erkak va ayol nutqidagi farqlar (ijtimoiy-lingvistik), tilning ijtimoiy kuch, hukmronlik yoki ta’sir vositasi sifatida ishlatilishi, odamlarning turli tillar yoki lahjalarga munosabati, davlatning til bo‘yicha siyosati (rasmiy til, ta’lim tili, terminologiya), vaziyatga,

suhbatdoshga, madaniyatga mos gapira olish qobiliyati pedagoglarning yuqoridagi kabi bilim va ko'nikmalari aniqlanadi. B1-B2

17-savol: bu turdagi savol avvalgi attestatsiya imtihonida berilgan va pedagoglardan berilgan so'zlarni rasmiy, neytral, va norasmiy ketma-ketlikda to'g'ri ifodalagan javobni topish so'ralgan. B2

18-savol: bu savolda murojaat turlarini farqlash, turli vaziyatlarda murojaat qilishning turlaridan foydalanish (vaziyatga, suhbatdoshga, madaniyatga mos gapira olish qobiliyati) kabi mazmun sohalar tekshirilgan. B2

19-savol: bu kabi savol avvalgi imtihonlarda ham pedagoglarga taqdim etilgan bo'lib, o'qituvchidan gazeta va jurnallarning sarlavhasida oddiy gaplarning ifodalanishini qo'llay olish ko'nikmalari tekshirilgan. B2

20-savol: bu turdagi savol avval ham qo'llangan va berilgan so'z shaklini ijtimoiy va hududiy til shakllari ko'rinishida farqlash nazarda tutilgan.

Leksikaga oid so'zlar 21-26-savollarni o'z ichiga oladi va fanning bu sohasida asosan so'zlarning ma'nosi tekshiriladi.

#	Knowledge areas	Requirements
6	Lexis	Studying the vocabulary of a language, including the meaning, use, and classification of words and multi-word units in different contexts and registers; Analyzing lexical relationships such as synonymy, antonymy, hyponymy, collocation, and polysemy, as well as how words form lexical fields and semantic networks; Identifying how vocabulary is acquired, organized, and expanded, including the role of frequency, connotation, word formation processes (e.g., compounding, derivation), and the influence of cultural and social factors on lexical choice.

Yuqorida berilgan ta'rifga qo'shimcha tarzda 6-tartib raqamida berilgan jadvaldagi "Leksika" bo'limida **Word formation processes; Lexical semantics; Collocations; Idiomatic language; Lexical fields and semantic fields; Register and style; Lexical borrowing; Neologisms and technological influence; Lexical variation and change; Dictionaries and corpus use** (so'z yasash usullari (affiksatsiya, qo'shma so'z, qisqartma va boshqalar), so'z ma'nolari va ma'no munosabatlari (polisemiya, antonimiya, sinonimiya va h.k.), odatda birga

ishlatiladigan soʻzlar: strong tea, heavy rain → quyuq choy, kuchli yomgʻir; koʻchma maʼnoli iboralar, mazmun boʻyicha guruhlangan soʻzlar (masalan: transport, taʼlim, tibbiyot), rasmiy / norasmiy nutq, uslubiy farqlar, boshqa tillardan kirgan soʻzlar (arabcha, ruscha, inglizcha soʻzlar), texnika va internet taʼsirida paydo boʻlgan yangi soʻzlar, vaqt va hududga koʻra soʻzlarning oʻzgarishi yoki farqlanishi, lugʻatlar va matn korpuslaridan foydalangan holda tahlil qilish)ni koʻrish mumkin. B2

21-savol: bunda yasama boʻlmagan (ingliz tilida qoʻshimcha qoʻshilganda oʻzgarishi mumkin boʻlgan) soʻzni topish soʻralgan. Ushbu savol spesifikatsiyada berilgan adabiyotdan chetga chiqmagan holda tuzilgan. B2. Misol uchun:

Which of the following is not a real word?

☐ A comparable

☒ B tolerable

☒ C eatable

☐ D refundable

Bu savolda “Quyida berilgan soʻzlarning qaysi biri yasama emas?” deb soʻralgan boʻlib, toʻgʻri javob C — “**eatable**” boʻladi. Chunki, “**comparable**”, “**tolerable**” va “**refundable**” — barchasi ingliz tilida toʻliq ishlatiladigan, standart soʻzlardir va ularga **-able** qoʻshimchasi qoʻshilganda ham ular javob variantlarida koʻrsatilgani kabi shaklga ega boʻladi. “**Eatable**” soʻzi lugʻatda mavjud boʻlsa ham, **eat** soʻziga **-able** qoʻshimchasi qoʻshilganda esa **edible** koʻrinishiga oʻtadi. Yuqorida aks etgan savol pegagoglarga taqdim etilgan spesifikatsiya asosida English Vocabulary in Use kitobining 146-sahifa “**suffixes**” mavzusida berilgan.

22-savol: bu savolda berilgan soʻzga toʻgʻri keladigan taʼrifni topish soʻralgan. B2

23-savol: bu savolda binominal (ikkita soʻz birgalikda bir maʼnoni beruvchi soʻzlar) soʻzlar toʻgʻri ifodalangan javob topish nazarda tutilgan. B2

24-savol: bu savolda idiomaga toʻgʻri ifodalangan javobni talab qilinadi. B2

25-savol: make va do soʻzlari bilan hosil boʻladigan iboralar ishtirokida toʻgʻri qoʻllanilgan javobni belgilash kerak. B2

26-savol: yozma va ogʻzaki nutqda ifodalaniladigan kiritma soʻzlar (misol uchun: see above, leaving aside, with reference to, in conclusion)ning ishlatilish oʻrniga mos javobni topish nazarda tutilgan.

Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi rasmiy veb-saytida eʼlon qilingan ingliz tili fani spesifikatsiyasida nazarda tutilgan oʻqib tushunish koʻnikmasini baholash boʻlimi oʻqituvchilarning “Matnni tahlil qilish jarayonida asosiy gʻoyalar, dalillar, matn tuzilishi, ohang, muallif maqsadi va nuqtayi nazarini aniqlash hamda berilgan axborotni toʻgʻridan-toʻgʻri tushunish bilan birga kontekst asosida xulosa chiqarish” kabi koʻnikmalarni tekshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, turli matn turlarini (hikoya, tasviriy matn, bahs-munozarali matn, izohli matn) farqlash, lugʻat birliklarini kontekstda tushunish, matn ichidagi bogʻlovchi vositalarni (olmoshlar, bogʻlovchilar) aniqlash va mazmun, tarfakashlik hamda ishonchlilikni baholashda tanqidiy fikrlashni oʻz ichiga oladi. B2

#	Knowledge areas	Requirements
7	Reading comprehension skills	Developing the ability to understand, interpret, and evaluate written texts by using a range of cognitive and linguistic strategies; Analyzing texts to identify main ideas, supporting details, text organization, tone, author’s purpose, and point of view, while also understanding explicit information and making inferences based on context; Recognizing different text types (narrative, descriptive, argumentative, expository), understanding vocabulary in context, identifying referencing devices (like pronouns or connectors), and applying critical thinking to assess meaning, bias, and credibility.

27-savol: bu savolda berilgan matnning asosiy mazmuni nimada ekanligini aniqlash talab etilgan. B2

28-savol: bu savolda berilgan matn mazmunini umumiy ifodalovchi gapni topish soʻralgan. B2

29-savol: bu savolda ajratib koʻrsatilgan soʻzni berilgan matndagi maʼnosini aniqlash talab qilingan. B2

30-savol: bu savolda matnni mazmunini toʻldiruvchi gapni topish nazarda tutilgan. B2

31-savol: bu savolda matntga koʻra maʼlumot boʻlmagan va muallifning gʻoyasini ifodalovchi gapni topish soʻralgan. B2

32-savol: bu savolda muallifning nazarda tutgan gʻoyasi/fikrini topish soʻralgan. B2

33-savol: bu savolda muallifning oʻzi ifodalagan matnga uning munosabatini topish soʻralgan. B2

34-savol: bu savolda matnning turi (Problem – solution, Cause – effect, Chronological sequence, Classification)ni topish soʻralgan. B2

35-savol: bu savol xuddi 27-savol kabi matnning umumiy mazmunini toʻgʻri ifodalagan gapni topish nazarda tutilgan.

#	Knowledge areas	Requirements
8	Pedagogical competence	Developing the ability to design, implement, and evaluate effective teaching and learning processes by applying a range of instructional, managerial, and reflective strategies; Organizing and delivering lessons to achieve learning objectives, fostering student engagement, motivation, and autonomy, while also addressing diverse learning needs and contexts; Recognizing different teaching methods (lecture, discussion, collaborative learning, problem-based learning), applying classroom management techniques, integrating assessment and feedback, using educational technologies effectively, and reflecting critically on teaching practices to improve quality, inclusivity, and learner outcomes.

Pedagogik mahoratga oid savollar:

1-savol: bu savolda formativ baholash, summativ baholash, Diagnostik baholash va darajalarga ajratish uchun baholash (placement assessment) kabi atamalarga to'g'ri ta'rif berilgan javob topish nazarda tutilgan.

2-savol: bu savol ham pedagogik bilimda keng tarqalgan atamalar (focus on form – grammatika, acquisition – tajriba oshirilishi natijasida ortirilgan bilimga ega bo'lish)ga berilgan ta'rifni topishni nazarda tutadi.

3-savol: bu savol xorijiy til darslarida qo'llaniladigan metodlarga berilgan vaziyatlar va shu metodlarning nomlanishini topish nazarda tutadi.

4-savol: bu savolda ham xuddi 38-savoldagi kabi dars jarayonida foydalaniladigan metodlar va ularning nomlanishini ko'rish mumkin.

5-savol: bu savolda o'quvchilarning dars davomida yo'l qo'yadigan nutqiy xatolariga misollar berilgan, bu misollarga yondashuvni ifodalash talab qilingan.

6-savol: bu savol sinfxona boshqaruvi mavzusini qamrab oladi va dars jarayonida turli shakldagi muammoli vaziyatlar yuzaga kelganda o'qituvchidan qanday yondashish kerakligi to'g'risidagi savollarni qamrab oladi.

7-savol: bu savolda o'rganuvchilarning dars davomida yo'l qo'yadigan nutqiy xatolariga misollar berilgan va xatolarning qaysi turiga mansubligini topish talab qilingan.

8-savol: bu savol darsni tashkillashtirish va unga turli metod va yondashuv shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Dars rejasini ishlab chiqishda metodlardan qay usulda foydalana olishni to'g'ri aniqlash va joriy etish juda muhim, chunki ular o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirishida qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Metodlar va ulardan to'g'ri foydalanish usuliga quyida berilgan javoblarning qaysi biri aynan mos keladi?

Juft	bo'lib	muhokama	qilish	→	Ss	-	Ss;
Muhokama	uchun	javob	qaytarish	→	Ss	-	T;
Ovoz	chiqarmay	o'qish	orqali umumiy mazmunni tushunish	→	Ss	-	text;

Javoblar o'rtasidagi farqni taqqoslash → Ss - Ss.
Juft bo'lib ishlash muhokamasi → T - Ss; O'qituvchining ma'lumot uchun javob berishi → Ss - Ss; Ovoz chiqarmay o'qish orqali umumiy mazmunni tushunish → T - text; Javoblar o'rtasidagi farqni taqqoslash → Ss - T.
Juft bo'lib ishlash muhokamasi → Ss - T; O'qituvchining ma'lumot uchun javob berishi → Ss - Ss; Ovoz chiqarmay o'qish orqali umumiy mazmunni tushunish → Ss - Ss; Javoblar o'rtasidagi farqni taqqoslash → T - text.
Juft bo'lib ishlash muhokamasi → Ss - text; O'qituvchining ma'lumot uchun javob berishi → Ss - Ss; Ovoz chiqarmay o'qish orqali umumiy mazmunni tushunish → Ss - T; Javoblar o'rtasidagi farqni taqqoslash → T - Ss.

9-savol: bu savol dars jarayonida sodir bo'ladigan nutqiy xatolarni aniqlash va to'g'rilash davri bilan bog'liq.

10-savol: bu savol ham muammoli vaziyat bilan bog'liq vaziyatda pedagog qanday optimal yechim topishi kerak.